

**CHET MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIK YOKI TURKIYADAGI
OFATLARGA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARNING
MUNOSABATI**

Qodirova Mamlakat, Mo‘minovna

Qarshi davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrası
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyo hamjamiyatida yuz bergan va berayotgan o‘zgarishlar haqida, millatlar boshiga tushayotgan sinovli kunlar haqida aytib o‘tiladi. Turkiya davlatida yuz bergan kuchli zilzila sabablari, oqibatları va bu ofatlarga boshqa millat, elatlarning xayrixohligi, nodavlat notijorat tashkilotlarning munosabati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: dunyo hamjamiyati, insonparvarlik, zilzila, mobil uy, nodavlat notijorat davlat tashkilotlari

Bugun dunyo hamjamiyati boshiga og‘ir sinovlar tushmoqda. Avval pandemiya, so‘ngra anomal sovuq, mana endi kuchli zilzila. Dunyo aholisi bunday og‘ir sinovlarni kuchli bardosh va sabr bilan, butun insoniyatga ishonib o‘tkazmoqda. Chet davlatlar o‘zaro hamkorlikda, bir-birini qo‘llab-quvvatlab baloyi ofatlardan o‘tib kelmoqda. Bunda minglab yo‘qotishlar, zararlar, ayrilishlar bo‘lmoqda, ammo butun insoniyat taqdiri butun imkoniyati ishga solib o‘zaro yordam berishmoqda.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar o‘zaro milliy qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta‘minlash, shuningdek, chet mamlakatlar bilan o‘zaro aloqalarni tartibga solish, yordam berish, har qanday sohada chet mamlakatlar bilan hamkorlik qilish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Shu yilning 6-fevral kuni Turkiyada kuchli zilzila yuz berdi. So‘nggi ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakayda 14 mingdan ortiq odam tabiiy ofat qurboni bo‘lgan, 63 mingdan ortiq odam jarohatlangan. Prezident Toyyib Erdo‘g‘on mamlakatda 7 kunlik milliy motam e‘lon qildi, tabiiy ofatdan jabr ko‘rgan o‘nta viloyatda 90 kunlik favqulodda holat joriy etildi. Bu voqealarga dunyo mamlakatlari ham, nodavlat notijorat tashkilotlar ham o‘z yordam va ko‘maklarini ayamay, qo‘llab-quvvatlashmoqda. Qizil yarim oy jamiyati

xodimlari va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari Turkiyaning zilziladan jabr koʻrgan hududlari aholisiga issiq ovqat ,kiyim-kechak, yopinchiq va boshqa kerakli mayda-chuyda narsalar ,zarur ,kerakli boʻlgan mahsulotlar tarqatmoqda.Tabiiy ofat hududiga 300 ming koʻrpa-toʻshak, 41 ming 504 dona chodir, 101 ming 738 dona choyshab, 4 ming 602 dona oshxona anjomlari, 3 ming 761 dona isitgich ,557 dona konteyner va boshqa narsalar yetkazildi.

Butun dunyo mamlakatlari Turkiyaga yordam qoʻlini choʻzmoqda .Xususan, “Turkiya va Suriya xalqlari bilan birgamiz.Yevropa Ittifoqi yordam berishga tayyor “deb yozgan Yevropa Ittifoqining Tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati boʻyicha oliy vakili Jozep Borrel.

“Biz hamkorlarimizga tezkor yordam beramiz” , deb yozgan Germaniya Tashqi ishlar vaziri Annalena Berbok Twitterda.

Qatar Turkiyada sodir boʻlgan zilzila tufayli bu davlatga 10 ming mobil uy yuborishini bildirdi.

Xalqaro hamjamiyat ,dunyo nodavlat notijorat tashkilotlari Bugun Turkiyaga yuzlab ,minglab odamlarning hayotiga zomin boʻlgan dahshatli zilziladan keyin yordam qoʻllarini uzatishmoqda. Shuningdek, Saudiya Arabistoni valiahd shahzodasi Muhammad bin Salom ham prezident Erdoʻgʻanga qoʻngʻiroq qilib, tabiiy ofatda koʻplab insonlarning halok boʻlganligi munosabati bilan hamdardlik bildir,yaradorlarga esa sogʻayib ketishini tiladi.

Prezident Rajab Toyyib Erdoʻgʻan ham zilzilalarda vayron boʻlgan yuz minglab uylarni qayta tiklaymiz,katta vayronaga uchragan shaharlarni qayta tiklaymiz ,deya xalqi ,millati uchun jon kuydirib dalda bermoqda.Kahramanmaroshda sodir boʻlgan va Turkiyani motamga aylantirgan 10 viloyatda sodir boʻlgan 7,7 va 7,6 magnitudali zilzilalardan soʻng guruhlar vayronalar ostida omon qolish uchun kurashayotgan fuqarolarga erishishga harakat qilmoqda.Nodavlat notijorat davlat tashkilotlari qutqaruv ishlarida ham jonbozlik koʻrsatishmoqda.Aholiga yegulik ,turar-joy ,kiyim –kechak kabi zarur narsalariga yordam bermoqda.Bunga Prezident Rajab Toyyib Erdogʻan ,zilzilalarda qidiruv-qutqaruv ishlarida jonbozlik bilan mehnat qilgan va qilayotgan jamoalar,tashkilotlar ,chet davlatlar va koʻngillilarga oʻzining chuqur minnatdorchilik bildirib , oʻz munosabati bildirmoqda.

Oʻzbek xalqi ham bugun oʻz insonparvarlik qoʻlini choʻzmoqda.Prezident Shavkat Mirziyoyevning topshirigʻiga muvofiq ,Oʻzbekistondan Turkiyaga 100 kishilik qutqaruvchu guruh joʻnatildi,oʻzlarining texnik ashyolari bilan insonparvarlik koʻmagi uchun yoʻlga otlanishdi.Bundan tashqari ,nodavlat notijorat tashkilotlar hamma viloyatlarga eʼlon tarqatib, kimda ishlatishga yaroqli

oziq-ovqat, issiq kiyim-kechak, zarur jihozlar, idish –tovoqlar va boshqa kerakli narsalar bo'lsa, olib kelishlarini va bu narsalar Turkiya xalqiga jo'natilishini aytib o'tmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Chet mamlakatlar bilan o'zaro yaqin do'stlik rishtalari mana shunday og'ir, sinovli kunlarda asqatadi. Turkiya xalqi boshiga tushgan og'ir ofatda nutun dunyo hamjamiyatlari, nodavlat notijorat tashkilotlar o'z yordamini ayamay jonbozlik ko'rsatib harakat qilishmoqda. Bu kunlardan omon o'tishlarida turk xalqiga sabr tilaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nodavlat notijorat tashkilotlar va jamiyat . O'zbekiston – geneva.
2. Turkiyada sodir bo'lgan zilzila haqida. Darakchi.uz.
2. Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Khudayar Khan's rule of kokand Khanate." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.02 (2022): 182-185.
3. Mamlakat, Qodirova, and Mannonov Yorqin. "BOZOR SAMADOV-XALQ QAHRAMONI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 696-698.
4. Safarov, Akmal, and Mamlakat Qodirova. "PAXTA YAKKAHOKIMLIGI DAVRIDA XOTIN-QIZLARNING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI O'RNINI (QASHQADARYO MISOLIDA)." E Conference Zone. 2022.
5. Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Issues of the Ethnogenesis of the Uzbek People in Ethnographic Studies of Uzbekistan During the Years of Independence." Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 7 (2022): 116-118.
6. Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Development of community livestock during the years of independence on the example of kashkadare and surkhandare." Academia Globe: Inderscience Research 3.04 (2022): 455-457
7. Mannonov, Yorqin, and Mamlakat Qodirova. "LAG'MON QISHLOG'I TARIXI." Scientific progress 3.3 (2022): 876-880.
8. Davronbek, Normurodov, and Qodirova Mamlakat. "Abu nasr inb Muhammad Farobiy." Ta'lim fidoyilari 5.9 (2022): 496-499.
9. Muminovna, Kodirova Country. "HISTORY OF CREATION AND DEVELOPMENT OF PUBLIC ORGANIZATIONS IN UZBEKISTAN." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.12 (2022): 967-969.
10. Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Why mahatma Gandhi changed the world forever." Academia Globe: Inderscience Research 3.06 (2022): 361-367.